

Ona tili

I qism

1



UO'K 811.512.133(075.3)

KBK 81.2O'zb-922

Yu 60

Yuldasheva D.Sh.

Ona tili. Umumiy o'rta ta'lif maktabalarining 1-sinfi
uchun darslik I qism / D. Sh. Yuldasheva. – Toshkent:
"Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 96 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta
ta'lif maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o'rta ta'lif
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

ISBN 978-9943-9708-6-1

© D. Sh. Yuldasheva

© "Novda Edutainment", 2023

Shartli belgilar:



Og'zaki
bajaring



Yodda
tuting



O'ylab
ko'ring



O'zingizni
sinab ko'ring



Uyga
vazifa



Yozma
bajaring

Kirish. Ona tili nima?





Ona tilim – o‘zbek tili.



1-mashq. Rasmlarga qarang.



O‘zbek tili –
mening ona tilim.



Mi lengua maternal
es el Español.



中文是我的
母語

- Turli tillarda berilgan gaplarni o‘qiy oldingizmi? Ularni tushundingizmi? Javobingizni izohlang.
- Ona tilingiz bo‘lgan o‘zbek tilidagi gapni ko‘chiring.



Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

O‘zbek tili – mening ona tilim.
O‘zbek tili – men yashayotgan
O‘zbekiston Respublikasining
davlat tili.





2-mashq. She'rni ifodali o'qing.

Ona tilim

Ona tilim – yurak qa'rimdan
Mehr bo'lib sochilgan jarang.
Qulog'imga go'dak paytimdan,
Alla bo'lib singgan ohang.

Ona tilim – necha asrlar
Kurashida yenggan polvonim.
Necha ajdod, necha nasllar,
Suyib o'tgan turkiy zabonim.



Iroda Umarova



3-mashq. O'qing. Maqolni ko'chiring.

Tilingda bo'lsa **boling**,
Kulib turar iqboling.

- Maqoldagi *boling* so'ziga yaqin ma'noli so'z toping.



4-mashq. O'qing. Quyida berilgan so'zlardan mosini tanlab, gapni to'ldiring.

... – bu o'zbek xalqining ona tilidir.

Tanlash uchun so'zlar: *ingliz tili, yapon tili, rus tili, o'zbek tili, turk tili.*

- Til** so'zi nutqda yana qanday ma'nolarda qo'llaniladi? Fikringizni izohlang.

Olim sozi oz,
Oz bolsa ham soz.



Yodda tuting! Qoidani ko'chirib oling.

Matn gaplardan tuziladi.

Mazmunan bog'langan ikki yoki undan ortiq gap **matn** deyiladi.



1-mashq. O'qing. Matnga sarlavha qo'ying.

Ertalab quyosh charaqlab chiqdi. Tomlarda osilib turgan muz sumalaklar yaltiray boshladи. Yerdagi qorlar erib ketdi. Chumchuqlar shodon chirqilladi.

- Matnda nechta gap ishtirok etgan?
- Matndagi gaplar ma'no jihatdan o'zaro bog'langanmi?
- Siz ham shunga o'xshash to'rtta gapdan iborat matn tuzing.



Yodda tuting! Qoidani ko'chirib oling.

Har bir gap biror tugallangan fikrni ifodalaydi.

Gapdagi so'zlar ma'no jihatdan bir-biriga bog'lanadi.





2-mashq. O'qing. Berilgan so'zlardan maqol tuzing.

qadrini

bilmagan

qadrini

o'z

Vatan

bilmas



O'zingizni sinab ko'ring! Akmalga qoidalarni to'ldirishda yordam bering.

1. Matn _____ lardan iborat bo'ladi.

2. Gap _____ lardan tuziladi.

3. Gap _____ fikrni ifodalaydi.

4. Gapdagi so'zlar bir-biri bilan _____.



3-mashq. Berilgan so'zlardan gap tuzing va yozing.

1. bilan, lola, bola, gul, bilan, ona
2. yurting, beshiging, oltin, ona
3. tanda, sog'lom, aql, sog'
4. o'yla, keyin, so'yla, avval

*Mard maydonda
sinalar.*



Ichki nutq



so'zlash



tinglash



o'qish



yozish



Yodda tuting! Qoidani ko'chirib oling.

Yer yuzida ko'plab tirik
mavjudotlar yashaydi. Ulardan
faqat insongina nutqqa ega.



- Yuqoridagi fikrdan nimani tushundingiz?
- Hayvonlar tovushi ham nutq sanaladimi?



**1-mashq. Rasmlarga qarang va uni
ta'riflang.**





Yodda tuting! Qoidani ko'chirib oling.

Og'zaki nutq – bu biz eshitayotgan yoki talaffuz qilayotgan nutq. "Og'zaki" so'zi "og'iz" degan so'zdan olingan bo'lib, og'iz orqali ifoda etiladigan nutq hisoblanadi.

Yozma nutq – bu biz o'qiydigan yoki yozadigan nutq. Yozishda biz harflar va yozma belgilardan foydalanamiz.



- Og'zaki va yozma nutq bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?



2-mashq. Shartlarni bajaring va izohlang.

1. Birinchi va ikkinchi ifodalarni so'z bilan yozing. Yozishda nechta so'z ishlatdingiz?

$$5 > 3 \quad 3 + 5 = 8$$

2. O'qing va nuqtalar o'rniiga tushirib qoldirilgan so'zni qo'yib, fikrni yakunlang.

Nutqda asosiy vazifani so'zlar bajaradi. Faqat insongina so'zlardan foydalanadi. Shuning uchun ... faqat insonga xos.

MUNDARIJA

Kirish. Ona tili nima?.....	4
Matn va gap. Matn nima? Gap nima?.....	8
Til va nutq. Nutq nima?.....	10
Tovush va harf. Tovush nima?.....	14
Harf nima?.....	18
O'zbek alifbosi. Alifbo nima?.....	20
Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....	22
Unli tovushlar.....	26
A va O unlisi.....	28
I va U unlisi.....	30
O' va E unlisi.....	32
Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....	34
Undoshlar. Undosh tovush va harf.....	38
X va H tovush va harflari.....	40
J tovush va harfi.....	42
Q va G' tovush va harflari.....	44

ng, sh, ch harflar birikmasi	46
Tutuq (') belgisi.....	50
Aytilishi va yozilishida farqlanuvchi undoshlar b–p, v–f, g–k, d–t, z–s, j–ch, j–sh.....	52
Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....	56
Bo‘g‘in. Bo‘g‘in nima?	58
Bo‘g‘in. Bo‘g‘inga ajratish.....	62
Bo‘g‘in. Bo‘g‘in ko‘chirish.....	64
Bo‘g‘in. Bo‘g‘in ko‘chirish. Qism II.....	66
Takrorlash. Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....	68
So‘z. So‘z ma’nosi.....	70
Gap. Gap nima?.....	74
Gap. Gap qanday tuziladi?	78
Gap. Gap oxiriga qo‘yiladigan tinish belgilari.....	80
Tinish belgilari. Nuqta, so‘roq va undov.....	82
Matn tuzish. Matn va gap farqlanishi.	
Matn qanday tuziladi?.....	84

veb-saytimiz: Zokirjon.com
***Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun
kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.***

Zokirjon Admin bilan

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomeraga
murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram
orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445
izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.
Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob
beriladi***

***1-sinf ona tili I qism kitobini to‘liq holda olish
uchun telegramdan yozing.***

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**